

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

ADILOV BAXRAMBEK KAXRAMONOVICH

**JAZONI IJRO ETISH TO‘G‘RISIDAGI QONUN HUJJATLARINING
UMUMIY QOIDALARINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

Adilov Baxrambek Kaxramonovich

Jazoni ijro etish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining umumiy qoidalarini takomillashtirish..... 3

Адиллов Бахрамбек Кахрамонович

Совершенствование общих положений законодательства об исполнении наказаний..... 21

Adilov Bakhrambek Kakhramonovich

Improvement of the general provisions of the legislation on the execution of punishment..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

ADILOV BAXRAMBEK KAXRAMONOVICH

**JAZONI IJRO ETISH TO‘G‘RISIDAGI QONUN HUJJATLARINING
UMUMIY QOIDALARINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Yu1604 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<http://akadmvd.uz>) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Abdurasulova Kumrinisa Raimkulovna,
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Zakirova Adina Gulyamovna
yuridik fanlar doktori, professor
Fayzullayeva Tamara Xamidullayevna
yuridik fanlar nomzodi, dotsent


Yetakchi tashkilot: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 16-aprel kuni soat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-22-52; e-mail: info@akadmvd.uz).

Dissertatsiya bilan Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1543-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 1-aprel kuni tarqatildi.

(2025-yil 1-apreldagi 8-raqamli reestr bayonnomasi).


A.S. Tursunov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

A.D. Xusanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Sh.A. Qulmatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo mamlakatlarining jinoyatchilikka qarshi kurashish siyosatida jinoiy jazolar ijrosini ta'minlash, mahkumlar axloqini tuzatishning eng samarali usullarini aniqlash obyektiv zaruratga aylanmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, "2024-yilda har 100 ming nafar aholiga nisbatan ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm etilganlarning soni bo'yicha Salvador (1086), Kuba (794), Ruanda (637), Turkmaniston (576) yuqori to'rtlikdan joy olgan"¹. "2023-yilda AQShda jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarning 1,9 mln. nafariga ozodlikdan mahrum qilish, 803.000 nafariga shartli hukm jazosi tayinlangan bo'lsa, 2,9 mln. nafar shaxsning probatsiya xizmatlarida jazo o'tashi belgilangan"². Biroq qo'llanilayotgan jazo choralari mahkumlarning axloqini tuzatish uchun yetarli emasligi, bu boradagi ishlar samaradorligini oshirish uchun yangi mexanizmlarni joriy etish bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati mavjudligini ko'rsatmoqda.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida jinoiy jazolarni ijro etishda qonuniylikni ta'minlash, jazolashdan ko'zlangan maqsadlarga to'la erishishga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish tendensiyasi ortib bormoqda. Mazkur tadqiqotlarda mahkumlarning axloqini tuzatishning eng samarali usullarini aniqlash, ular tomonidan yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida jinoyatchilarning psixologiyasini o'rganish, ularning qayta ijtimoiylashuvini ta'minlashning eng maqbul vositalarini tanlash, ularni qo'llash mezonlarini takomillashtirish, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy hamda amaliy jihatlariga doir muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish siyosati izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi "...jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish" vazifasining ijrosi yuzasidan³ Prezident farmoni bilan har yili minglab shaxslar afv etilmoqda⁴, sudlar tomonidan ozodlikdan mahrum qilishga muqobil jazo choralari qo'llash tendensiyasi ortib bormoqda. Natijada O'zbekiston 2024-yilda huquq ustuvorligi indeksida (Rule of Law Index) 142 ta mamlakat orasida 83-o'rinni egalladi⁵. Bu mahkumlarning axloqini tuzatish va ularni qayta tarbiyalash, huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini yanada ishonchli himoya qilish, jazoni ijro etish asoslarini mustahkamlash orqali jinoyat-ijroiya qonunchiligining umumiy qoidalarini takomillashtirishni jinoyat-ijroiya huquqi siyosatining dolzarb masalalaridan biri sifatida namoyon etmoqda.

¹ URL:<https://www.statista.com/statistics/262962/countries-with-the-most-prisoners-per-100-000-inhabitants>.

² URL:https://www.prisonpolicy.org/blog/2023/03/14/whole_pie_2023.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // URL:<https://lex.uz/docs/5841063>.

⁴ URL:<https://president.uz/uz/lists/view/7149>.

⁵ URL:<https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global>.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi (2023), O‘zbekiston Respublikasining “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma‘muriy nazorat to‘g‘risida”gi (2019) qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2020), “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021), “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi (2022), “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi (2023) farmonlari, “Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2018) qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahkumlarni umumiy ta‘lim va kasbga o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2018), “Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq jazolarni ijro etish muassasalarining faoliyati samaradorligini ta‘minlash bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2020), “Ichki ishlar organlari probatsiya xizmati faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2020) qarorlari⁶ va sohaga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqot mavzusiga oid umumiy masalalar jinoyat va jinoyat-ijroiya huquqi sohasida tadqiqot olib borgan olimlardan Q.R. Abdurasulova, G.U. Axmedova, I. Ismailov, R.K. Kabulov, B.X. Po‘latov, M.H. Rustamboyev, N.S. Salayev, A.I. Toshpulatov, I.Yu. Fozilov, G‘.O. Ermatov, M.Sh. Yuldashev, A.S. Yakubovlar⁷ tomonidan o‘rganilgan. Ular tomonidan tayyorlangan ishlanmalar, darsliklar va ilmiy maqolalarda asosan jazo va jazoni ijro etishning qonuniy tartibga solinishiga doir umumiy masalalar yoki tadqiqot mavzusiga bog‘liq ayrim jihatlar yuzasidan mulohazalar yuritilgan.

Xorijiy mamlakatlarda jinoyat-ijroiya qonunchiligining umumiy masalalari S.S. Alekseev, Y.V. Barzilova, I.Y. Dyuryagin, L.N. Zavadskaya, V.N. Kazakov, V.V. Lazarev, N.I. Matuzov, A.V. Malko, P.Y. Nedbaylo, A.S. Pigolkin, Y.S. Reshetov, V.M. Sirix, V.A. Sapun, I.Y. Sennikov, N.I. Tyurina, P.O. Xalfina, V.N. Xropanyuk, L.S. Yavich tomonidan, jinoyat-ijroiya huquqi normalarini amalga oshirish mexanizmi – G.P. Baydakov, A.I. Vasilev, M.A. Yefimov, A.P. Zakalyuk, D.I. Ivashin, N.N. Ilyushin, B.B. Kazak, M.P. Melentev, T.F. Minyazeva, A.S. Mixlin,

⁶ Bu va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

⁷ Bu va boshqa mualliflarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

I.M. Perkov, A.L. Remenson, A.S. Sevryugin, V.I. Seliverstov, N.A. Struchkov, V.A.Utkin, V.A. Fefelov, V.I. Xijnyak, S.X. Shamsunov, V.I. Shmarov tomonidan tadqiq etilgan⁸.

Yuqoridagi mualliflarning tadqiqotlari jinoyat-ijroiya huquqi fanining rivojiga muayyan darajada hissa qo‘shgan. Biroq ayni vaqtga qadar mamlakatimizda jazoni ijro etish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining umumiy qoidalarini takomillashtirishga oid tadqiqotlar o‘tkazilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi “Jazoni ijro etish faoliyatida jazoning ijrosini ta‘minlash, mahkumlarni axloqan tuzatish, jinoyatlar sodir etilishining oldini olish hamda mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni takomillashtirish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jinoyat-ijroiya qonunchiligining umumiy qoidalarini takomillashtirishga doir ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

jinoyat-ijroiya qonunchiligining umumiy qoidalarini retrospektiv tahlil qilish;
jinoyat-ijroiya qonunchiligining umumiy qoidalarining tavsifi va yuridik tabiatini o‘rganish;

jinoyat-ijroiya qonunchiligining vazifalarini ilmiy-nazariy tahlil qilish;
jinoyat-ijroiya qonunchiligining prinsiplarini ilmiy-nazariy tahlil qilish;
jinoyat-ijroiya qonunchiligining umumiy qoidalarini jazoni ijro etish faoliyatida qo‘llash amaliyotini tadqiq etish;

jazoni ijro etish tizimiga oid xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganib, ularning ijobiy jihatlarini implementatsiya qilish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish;

jazoni ijro etish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining umumiy qoidalarini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti jinoyat-ijroiya qonunchiligining umumiy qoidalari bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlardir.

Tadqiqot predmetini jinoyat-ijroiya qonunchiligining umumiy qoidalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, sohaga oid xalqaro huquq normalari va xorijiy davlatlar qonunchiligi, shuningdek, ularni qo‘llash amaliyoti hamda yuridik fandagi jinoyat-ijroiya huquqiga oid konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ustida ishlash jarayonida ilmiy bilishning induksiya, deduksiya, kuzatish, umumlashtirish, tahlil qilish, formal-mantiqiy, tarixiy, aniq sotsiologik, shuningdek, ilmiy manbalarni o‘rganish kabi usullaridan keng foydalanildi.

⁸ Bu va boshqa mualliflarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda ko‘rinadi:

mahkumlarga nisbatan insoniy muomalada bo‘lish, sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilishdan iborat xalqaro huquq normasini alohida prinsip sifatida jinoyat-ijroiya qonunchiligida belgilash zarurati asoslantirilgan;

huquqiy himoya bo‘yicha milliy qonunchilikdagi barcha vositalardan foydalangan mahkumlarning inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlarga murojaat etishga haqli ekanligini qonunchilik hujjatlarida mustahkamlash lozimligi isbotlangan;

amaldagi qonunchilikka o‘ziga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi, insonning sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishdan iborat huquqni kiritish orqali mahkumlarning huquqiy holatini yanada kengaytirish zarurligi asoslab berilgan;

tarbiyaviy ishlarni mahkumlarni tuzalish yo‘liga o‘tganlar va tuzalish yo‘liga o‘tmaganlar toifalariga ajratgan holda amalga oshirish ijobiy natijalar berishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

“O‘zbekiston Respublikasining jinoyat va jinoyat-ijroiya kodekslariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi ishlab chiqilgan;

jinoiy jazoni, shuningdek, boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir choralarini ijro etish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladigan normativ-huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirish, qolaversa, huquqni qo‘llash amaliyotida jinoyat-ijroiya qonunchiligining umumiy qoidalariga tayanishning nazariy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan;

“jinoyat-ijroiya qonunchiligining umumiy qoidalari”, “jinoyat-ijroiya qonunchiligi”, “jinoyat-ijroiya qonunchiligining prinsiplari”, “jinoyat-ijroiya huquqi normalarini amalga oshirish mexanizmi”, “mahkumning majburiyati”, “mahkumlarning huquqlaridan foydalanishi” tushunchalari bo‘yicha mualliflik ta’riflari ishlab chiqilib, ularning mazmuni, mohiyati va xususiyatlari aniqlashtirib berilgan;

jinoiy jazoni, shuningdek, boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir choralarini ijro etishning xalqaro mexanizmlari va xorijiy davlatlarning tajribalari qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan;

inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlar milliy qonunchilikka va jinoiy jazoni hamda boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir choralarini ijro etish amaliyotiga implementatsiya qilish, shuningdek, mahkumlarning axloqini tuzatish samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

jinoyat-ijroiya qonunchiligida belgilangan jazoni ijro etish asoslaridan tashqari har qanday hollarda o‘zboshimchalik bilan boshqa shaxsni jazolashga urinish holatlarini qonunga zid harakat sifatida jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunchiligi doirasida qat’iy va aniq normalar asosida taqiqlashga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan;

yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi normalarini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari va ushbu jarayonda e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan jihatlarga oid tavsiyalar berilgan;

jazoni ijro etish koloniyalarida mahkumlar yashashi uchun zarur shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga yo‘naltirilgan tashkiliy chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalari (reprezentativlik) xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, ularni qo'llash amaliyotidagi ilg'or tajribalar, sotsiologik (anketa so'rovi, intervyu olish) tadqiqotlar, statistik ma'lumotlar tahlili natijalarini umumlashtirish orqali asoslantirilgan, xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tgan, tadqiqot natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan, olingan natijalar vakolatli idoralar tomonidan o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari, 250 ta mahkumning shaxsiy yig'majildini o'rganish hamda 806 nafar mahkum bilan amalga oshirilgan intervyu-suhbat natijalari umumlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* dissertatsiyada ifodalangan xulosa, taklif va tavsiyalardan kelgusi tadqiqot ishlarida, qonun ijodkorligi jarayonida, qonunni qo'llash amaliyotida, jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, shuningdek, "Jinoyat-ijroiya huquqi", "Jinoiy jazolarni ijro etish faoliyati", "Jinoyat huquqi" va "Kriminologiya" fanlarini nazariy jihatdan boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* jazoni ijro etish to'g'risidagi qonun hujjatlarining umumiy qoidalarini takomillashtirish borasida ishlab chiqilgan takliflarning joriy etilishi O'zbekiston Respublikasining jinoyatchilikka qarshi kurashish siyosatining samaradorligiga, jinoyat-ijroiya qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirishga, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qilishida ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Jazoni ijro etish to'g'risidagi qonun hujjatlarining umumiy qoidalarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

mahkumlarga nisbatan insoniy muomalada bo'lish, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishdan iborat xalqaro huquqiy normani alohida prinsip tariqasida jinoyat-ijroiya qonunchiligida belgilashga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 6-moddasini takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlar institutining 2024-yil 21-sentabrdagi 3/08-181-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi jinoyat-ijroiya qonunchiligining prinsiplarini xalqaro huquq normalari asosida takomillashtirishga xizmat qilgan;

huquqiy himoya bo'yicha milliy qonunchilikdagi barcha vositalardan foydalanib bo'lgan mahkumlarning, inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlarga murojaat etishga haqli ekanligini qonunchilikda belgilash taklifidan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 9-moddasi birinchi qismi beshinchi xatboshisini takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlar institutining 2024-yil 21-sentabrdagi 3/08-181-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi mahkumlarning huquq va erkinliklari buzilganda inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlarga murojaat qilish huquqini kafolatlashga xizmat qilgan;

amaldagi qonunchilikka o'ziga nisbatan insoniy muomalada bo'linishi hamda insonning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishdan iborat huquqni

kiritishga doir takliflar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksiga yangidan kiritilgan 11¹-moddani ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlar institutining 2024-yil 21-sentabrdagi 3/08-181-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi mahkumlarning huquqiy maqomini jinoyat-ijroiya qonunchiligining prinsiplariga muvofiq tarzda mustahkamlanishiga xizmat qiladi;

tarbiyaviy ishlarni mahkumlarni tuzalish yo‘liga o‘tganlar hamda tuzalish yo‘liga o‘tmaganlar toifalariga ajratgan holda amalga oshirish bo‘yicha taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi “Jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi takomillashtirilganligi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining “Ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy-maishiy ta‘minlash va ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 17-iyuldagi 543-son qaroriga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi 430-son qarorining ilovasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-noyabrdagi 12-15-120-son dalolatnomasi). Ushbu takliflarning joriy etilishi jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar samaradorligining ortishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 3 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta, jumladan, dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta ilmiy maqola (ulardan 1 tasi xorijda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, 7 ta paragrafni o‘z ichiga olgan uchta bobdan, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, hajmi 137 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi asoslantirilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiyaning IIV Akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi, maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi, aprobatsiyasi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Jinoiy jazoni ijro etish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari umumiy qoidalarining ilmiy-nazariy tahlili**” deb nomlangan bo‘lib, ikkita paragrafni o‘z ichiga oladi. Ushbu bobda jazoni ijro etish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining shakllanish tarixi, rivojlanish bosqichlari, huquqiy tavsifi va tasnifi, o‘ziga xos jihatlari, mazkur qonun hujjatlarining umumiy qoidalarini takomillashtirishning ijtimoiy-huquqiy zarurati tahlil qilingan.

Dissertantning fikricha, jazoni ijro etish to'g'risidagi qonun hujjatlarining umumiy qoidalarini takomillashtirishda, avvalambor, ushbu faoliyatga doir ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan qonunchilikning shakllanish tarixi chuqur tadqiq etilishi lozim. Tahlillar asosida jazoni ijro etishga doir munosabatlar ushbu sohani tartibga soluvchi normativ hujjatlar qabul qilinishidan ancha ilgari paydo bo'lgan degan gipotiza ilgari so'rilgan. Ushbu farazlarni Y.M. Karaketovning "jazo hokimiyat paydo bo'lishi va odat huquqidan boshlanib, iqtisodiy kuchli guruhlar ustunligini ta'minlash quroliga aylangan"⁹ degan fikrlarining asosligi e'tirof etilib, sodir etilgan jinoyat uchun jazolash vositalari, hukmron guruhlarning nazariy qarashlari asosida davlat manfaatlarini himoya qilishining asosiy vositasi bo'lganligi ta'kidlangan.

Shuningdek, ishda jamiyat taraqqiyotining keyingi davrlarida jazoni ijro etish faoliyatida ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan jazoning muqarrarligi qoidasiga ko'ra asosiy e'tibor jazolash uslublariga qaratilgani, shu asosda musulmon davlatlari jinoyat-ijroiya munosabatlarida *zindon, jallod, darra* kabi atamalar, G'arbiy Yevropa davlatlarida esa *gilotina, garrota* kabi vositalar ko'proq qo'llanilgani qayd etiladi. Hamda qayd etilganlar – jazoni ijro etish muassasalari hamda vositalarining dastlabki ko'rinishi, jazolash bo'lsa – jinoyatchiga ta'sir o'tkazishning vositasi sifatida jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan chora degan to'xtanga kelingan. Shu bilan birga, borgan sari jinoyat-ijroiya munosabatlarni tartibga solish usuli takomillashib borib, jazoni ijro etish faoliyatiga oid umumiy qoidalar shakllanib borgan hamda bu boradagi yaxlit qonunchilik tizimi shakllantirilgan degan xulosaga kelingan.

Tadqiqotda jinoyat-ijroiya qonunchiligining fundamental asoslari, rivojlanish tendensiyalarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilib, shakllanish bosqichlarini o'zbek davlatchiligining tadrijiy rivojlanish tarixiy xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagi davrlarga bo'lib o'rgangan:

birinchi bosqich – VII-XIX asrlar oraliqida amalda bo'lgan shariat qonunlari va odat huquqi normalari asosida jinoiy jazolarni tayinlash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini ta'minlashda zindonlardan foydalanilgan Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklari davri;

ikkinchi bosqich – ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo shariat sudlari va 1864-yil 20-noyabrda qabul qilingan "Jazolar to'g'risida"gi Nizom asosida Rossiya imperiyasi sudlari tomonidan belgilangan va ijrosi zindonlar hamda maxsus qurilgan binolarda ta'minlangan Rossiya imperiyasi hukmronligi davri;

uchinchi bosqich – 1917-yilda sovet hokimiyatining o'rnatilishi, jinoyat-ijroiya siyosatini amalga oshirish Turkiston ASSR Ichki ishlar xalq komissarligining tashkiliy-ma'muriy boshqarmasi majburiy ishlar bo'limiga yuklatilgan, shuningdek, sobiq Ittifoq davridagi jinoyat-ijroiya qonunchiligi amal qilgan davr;

to'rtinchi bosqich – Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi (keyingi o'rinlarda – JIK) asosida jazoni ijro etish tizimi tartibga

⁹ Каракетов Ў., Усмоналиев М. Криминология. – Т., 2001. – Б.31.

solingan davrlar sifatida ajratilib, institutning normativ-institutsiyaviy jihatlari tahlil qilingan.

Dissertatsiyada jinoyat-ijroiya qonunchiligi umumiy qoidalarining tavsifini, yuridik tabiatini va mohiyatini ochib berishga harakat qilingan. Jumladan, muallifning fikriga ko'ra, jinoyat-ijroiya qonunchiligining umumiy qoidalari mazkur sohaga doir norma ijodkorligi faoliyatining, shuningdek, qonunni qo'llashning asosiy prinsiplarini, mazmunini va maqsadini belgilab beradigan normalar tizimi hisoblanadi hamda ushbu xulosaga asoslanib, *“jinoyat-ijroiya qonunchiligining umumiy qoidalari – jinoiy jazoni, shuningdek, boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ni ijro etish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladigan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritish, shuningdek, ularga rioya qilish, ijro etish, foydalanish va qo'llashning asosiy prinsiplarini belgilab beradigan normalardir”* degan mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga, mazkur bobda jinoyat-ijroiya huquqidagi mavzuga doir ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilinib, jazoni ijro etish faoliyatini tartibga soladigan qonunchilikning tavsifi va o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Buning uchun mahalliy olimlardan G.U. Axmedova, N.S. Salayev, A. Saydaliyev, M.Sh. Yuldashevlarning penitensiar tizimning profilaktik funksiyasi samaradorligini oshirish, ozodlikdan mahrum qilish jazosining ijrosini tashkil etishga doir, xorijlik mualliflardan O.V. Belyanskaya, Y.A. Golovastova, V.V. Kashoida, N.B. Malikova, V.E. Yujanin, A.F. Sizoy va boshqalarning mahkumlarning jinoyat-ijroiya huquqiy munosabatlar subyekti sifatida, shuningdek, ularning huquqlarini amalga oshirishni tartibga solish muammolari bo'yicha ilgari surgan fikrlari bilan ilmiy munozaraga kirishilgan hamda jinoyat-ijroiya qonunchiligi umumiy qoidalarining mazmun-mohiyati oydinlashtirilgan. Xususan, muallifning nuqtai nazariga ko'ra hamda Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikalari qonunchilik tajribalari tahlillariga tayanib, mahkumlarni axloqan tuzatish vositalari hamda ularni qo'llash tartibi, jazoni ijro etuvchi muassasa va organlar faoliyati tartibi shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari bilan bog'liqligi sababli O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari yordamida tartibga solinishi lozim degan to'xtamga kelingan.

Bundan tashqari, davlat rahbarining “sud-huquq sohasiga doir asosiy qonun va kodekslar bundan deyarli 20-25 yil oldin qabul qilingan bo'lib, hozirgi davr talablariga mutlaqo javob bermaydi. Shu sababli parlament yaqin yillarda Fuqarolik, Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Jinoyat-ijroiya, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarni yangidan qabul qilishi maqsadga muvofiq. Bu borada, avvalo, tergov va sud amaliyotiga inson huquqlari sohasidagi ilg'or standartlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratish kerak”¹⁰ degan rahbariy tashabbuslariga asoslanib, jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirishga oid qator masalalar xususida fikr yuritilgan. Jumladan, ishda qayd etilishicha, jinoiy jazoni ijro etish faoliyatini tartibga soladigan qonun hujjatining nomi davlat tilida – “O'zbekiston

¹⁰ <https://president.uz/uz/lists/view/3321>

Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi”, rus tilida –“Уголовно-исполнительный кодекс Республики Узбекистан” shaklida berilgan. Biroq kodeks nomining rus tiliga soʻzma-soʻz tarjimasini boshqacha, yaʼni “Преступление исполнительный кодекс Республики Узбекистан” boʻladi. Negaki “уголовно” (“уголовный”) soʻzining maʼnosini aynan aks ettiruvchi soʻz mavjud emas. Shuningdek, “уголовно” (“уголовный”) soʻzi xalqaro atama sifatida eʼtirof etilmagan hamda oʻzbek tilining lugʻatida mavjud emas. Bundan tashqari, kodeksning davlat tilidagi nomi ham mazmunan “jinoyat-ijroiya”, yaʼni jinoyatni bajarish, jinoyat qilish degan maʼnolarni anglatadi. Shularni nazarda tutib va ijtimoiy soʻrovnoma ishtirok etgan respondentlarning 64 foizlik ijobiy munosabati bilan maʼqullangan fikriga tayanib, yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksini “*Oʻzbekiston Respublikasining Jinoiy jazoni ijro etish kodeksi*” deb nomlash haqidagi taklif ilgari surilgan.

Shuningdek, tadqiqotchi jazoni ijro etish uchun sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, ajrimi yoki qarori, qolaversa, amnistiya yoki afv akti asos boʻlishi haqidagi umumiy qoidaning mohiyatini tadqiq etib, bu borada Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 146-moddasidagi mamlakat hududida jinoyatchilikka qarshi kurashish boʻyicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi jamoat birlashmalari va ularning boʻlinmalarini tuzish hamda ularning faoliyati taqiqlanishi haqidagi konstitutsiyaviy prinsipga muvofiq, jazoni qoʻllash masalasi faqat jinoiy jazolarni ijro etishga vakolatli boʻlgan davlat idoralari berilganini qayd etgan. Boshqa har qanday huquq subyektlari tomonidan oʻzboshimchalik bilan boshqa shaxsni jazolashga urinish (samosud) holatlari keyingi davrda jamoatchilikni jiddiy tashvishga solayotgani, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni inkor etadigan ushbu holatlar, qonunga zid harakat sifatida jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunchiligi doirasida qatʼiy va aniq normalar asosida taqiqlanishi lozim, degan toʻxtamga kelingan. Shu asosda ishlab chiqilgan Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksining 5-moddasini “*Shaxsga nisbatan sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi boʻlmagan taqdirda, jazo yoki boshqa jinoyat-huquqiy taʼsir choralari qoʻllanilishiga yoʻl qoʻyilmaydi*” degan mazmundagi ikkinchi qism bilan toʻldirish hamda ushbu qoidaning moddiy asosini mustahkamlash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksini “*Oʻzboshimchalik bilan jazolash*” nomli 138¹-modda bilan toʻldirish boʻyicha takliflar ijtimoiy soʻrovda ishtirok etgan respondentlarining 77 foizi tomonidan maʼqullangan.

Dissertatsiyaning “**Jinoyat-ijroiya qonunchiligining umumiy qoidalari va ularni qoʻllash amaliyoti**” nomli jami uchta paragrafdan tashkil topgan ikkinchi bobida eng muhim umumiy qoidalar sifatida jinoyat-ijroiya qonunchiligining vazifalari va prinsiplari tadqiq etilgan, shuningdek, ushbu qoidalar hamda boshqa umumiy qoidalarning jazoni ijro etish faoliyatida qoʻllash amaliyoti oʻrganilib, ushbu institutlarni rivojlantirish asosida jinoyat-ijroiya qonunchiligi huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi mazkur bobni yoritishda, avvalo, jinoyat-ijroiya qonunchiligining vazifalari hamda ularning yuridik tabiatiga eʼtibor qaratilib, ushbu vazifalarning

penitensiar tizimning profilaktik funksiyasini amalda tatbiq etishga xizmat qilish darajasi o'rganilgan. Hamda ushbu masala yuzasidan Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Belarus, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston va Turkmaniston singari davlatlarning qonunchilik tajribalari o'rganilib, amaldagi JIKning vazifasiga oid normasini (2-modda) "*shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini muhofaza qilish, mahkumlarni jamiyatga moslashtirish va mahkumlar tomonidan yangi jinoyat sodir etilishining oldini olish*" degan qoidalarni kiritish orqali takomillashtirish taklifi asoslantirilgan, mazkur takliflarni tadqiqot doirasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlarda ishtirok etganlarning 65 foizi ma'qullagan.

Bundan tashqari, ishda qonunchilikning vazifalari hamda jinoyat-ijroiya huquqi normalarini amalga oshirish mexanizmidagi o'zaro bog'liq jihatlar muhokama qilinib, bu boradagi Y.I. Grevsov, A.A. Telegin va F.N. Fatkullinlar tomonidan ilgari surilgan penitensiar normalarni jazoni ijro etish amaliyotida qo'llash masalalari bo'yicha ilmiy xulosalarga tayangan holda *jinoyat-ijroiya huquqi normalarini amalga oshirish mexanizmi* tushunchasining mohiyati oydinlashtirib berilgan. Jumladan, mazkur mexanizmning o'ziga xos xususiyati sifatida undagi ikki asosiy subyekt, ya'ni jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati va mahkum o'rtasidagi huquqiy munosabatlaridagi o'ziga xoslikning mavjudligi qayd etilgan. Mazkur tengsizlikning sababi sifatida esa sud hukmi bilan mahkumga tayinlangan jinoiy jazo hamda boshqa huquqiy ta'sir choralarini qo'llash xususiyatlari ko'rsatilgan.

Shuningdek, ushbu bobda jinoyat-ijroiya qonunchiligi prinsiplarining tizim faoliyatidagi o'rni hamda huquqiy ta'sir doirasiga e'tiborni qaratib, ushbu masalada Yevropa penitensiar qoidalarida ustuvorlikka ega bo'lgan mahkumlarning eng zaif toifalarini qo'llab-quvvatlash, yosh toifalari bo'yicha turkumlashtirish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, jismoniy tarbiya va sportdagi faolligini oshirish, ijtimoiy himoyasini mustahkamlash, jazoni o'tash joyi, rejimini belgilashda ular bilan maslahatlashish kabi prinsiplarga alohida urg'u beradi. Shuningdek, prinsiplarning yuridik tabiati, xususan, ularning jinoiy-huquqiy normalar bilan bog'liq jihatlari bo'yicha X.M. Abzalova, N.S. Salayev, D.G'. Kamalova, A.K. Rasulev, U.Sh. Xoliquovlarning xorijiy olimlar V.K. Babayeva, A.L. Vyazov, R.L. Ivanov, R.Z. Livshis, T.N. Radko, A.F. Cherdansev, A.A. Teleginlarning qarashlari tahlil qilinib, shu asosda jinoyat-ijroiya qonunchiligida (JIK 6-modda) belgilangan har bir prinsipning mazmun-mohiyati hamda jazoni ijro etish faoliyatida qo'llash doirasi yoritilib, "*jinoyat-ijroiya qonunchiligining prinsiplari*" tushunchasi bo'yicha "*jazoni ijro etishga doir ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va jinoyat-ijroiya qonunchiligi tavsifi bo'yicha davlatning asosiy huquqiy qarashlarini ifodalovchi rahbariy huquqiy qoidalar*" tarzidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, xalqaro huquqdagi mahkumlarga nisbatan insoniy muomalada bo'lish, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish qoidasini jinoyat-ijroiya qonunchiligining prinsiplarida, shuningdek, inson huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytiruvchi huquqiy mexanizmlarni mahkumlarning huquqiy maqomini tartibga soladigan JIKning

boshqa normalarida (JIK 9, 11¹-moddalari) mustahkamlash zarurati asoslantirilgan. Bundan tashqari, JIKning Umumiy qismini “Jinoyat-ijroiya qonunchiligi prinsiplari” nomli yangi bob bilan to‘ldirish hamda undagi har bir prinsipni alohida moddalar orqali tartibga solish tavsiya etilgan.

Dissertant jinoyat-ijroiya qonunchiligining umumiy qoidalaridan yana biri bo‘lgan mahkumni axloqan tuzatish, axloqan tuzatishning asosiy vositalarini qonunni qo‘llash amaliyotida namoyon bo‘lish xususiyatlarini tadqiq etib, jazoni ijro etish faoliyatining bugungi holatini o‘rgangan. Bunda dastavval mamlakatimizda jazoni ijro etish tizimida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar, Nelson Mandela qoidalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish jarayonlari, jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilingan.

Shuningdek, ish doirasida mahkumlarni axloqan tuzatishning asosiy vositalari hisoblangan jazoni o‘tash tartibi (rejimi)ni to‘g‘ri tanlash, mahkumlarni ijtimoiy-foydali mehnatga yo‘naltirish, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, ta‘lim olishi hamda kasbiy tayyorgarligi samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini aniqlash maqsadida Toshkent, Buxoro va Navoiy viloyatidagi 5 ta (11, 13, 17, 24, 42-son) jazoni ijro etish muassasalarida tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ma‘lum bo‘lishicha, (ayollar) jazoni ijro etish manzil-koloniyaqidagi mahkumalarning 20,3 foizini 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lganlar, 50,4 foizini muqaddam sudlanganlar hamda 44,0 foizini o‘rta, 40,5 foizini o‘rta maxsus va 15,5 foizini oliy ma‘lumotlilar tashkil etgan. Ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning asosiy sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlar sifatida ta‘lim-tarbiyasidagi kamchiliklar (71 foiz), kasbiy bilim va ko‘nikmalarning mavjud emasligi (42 foiz), ijtimoiy yakkalanish (47 foiz) kabi omillar aniqlangan. Xuddi shunga o‘xshash omillar voyaga yetmagan shaxslar bilan bog‘liq jazoni ijro etishga ixtisoslashtirilgan muassasadagi mahkumlar bilan intervyu-suhbatlar hamda ijro ishi hujjatlarini o‘rganish jarayonida ham kuzatilgan. Xususan, ushbu toifaga kiradigan mahkumlarning 60 foizida umumiy o‘rta ma‘lumotning yetishmasligi, 32 foizida oiladagi nosog‘lom muhit sababli jinoyatchilik ko‘chasiga kirib qolganligi aniqlangan. Shu asosda jinoiy jazolarni ijro etish tizimida insonparvarlik prinsiplarini kengaytirish, mahkumlarni hayotga qayta tayyorlash hamda ijtimoiy moslashtirish tadbirlariga alohida e‘tibor qaratish, xususan, mahkumlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni tuzalish yo‘liga o‘tganlar hamda tuzalish yo‘liga o‘tmaganlar kabi toifalarga ajratgan holda amalga oshirish, jazoni ijro etish muassasalarining umumiy va hunar ta‘limi hamda ishlab chiqarish faoliyatini yanada rivojlantirish lozimligi asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Jinoyat-ijroiya qonunchiligining umumiy qoidalarini takomillashtirish**” deb nomlanib, ikkita paragrafdan tashkil topgan. Unda jazoni ijro etish tizimiga doir ayrim xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinib, jazoni ijro etish faoliyatiga oid qonunchilikni yanada takomillashtirish orqali jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari vazifalarining ijrosi samaradorligini oshirish yo‘llari tadqiq etilgan.

Tadqiqot ishida ayrim ilg'or xorijiy davlatlarning tajribasini o'rganish har qanday huquq tarmog'i singari, jinoyat-ijroiya huquqini ham rivojlantirish, shuningdek, davlatning xalqaro reyting va indekslarda munosib o'rin egallashining muhim omili ekanligi inobatga olinib, penitensiar tizimi bo'yicha ijobiy natijalarga erishgan davlatlarning qonunchiligi va uni qo'llash amaliyoti tadqiq etilgan. Jumladan, O'zbekiston huquq ustuvorligi indeksi (Rule of Law Index) bo'yicha so'nggi uch yildagi ko'rsatkichlarini 14 pog'onaga yaxshilab, 142 ta mamlakat orasida 83-o'rinni egallagani (2024-y.), shu kabi indekslarda yanada ijobiy natijalarni qayd etish uchun mamlakatda huquq ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning uzviyligini ta'minlash zaruratiga urg'u berilgan.

Dissertatsiyada ayrim MDH davlatlari jinoyat-ijroiya qonunchiligida "Jinoyat-ijroiya qonunchiligi prinsiplari"ning alohida bobda aks etganligi (Qirg'iz Respublikasi), jazoni ijro etishda differentsiatsiyalash hamda individuallashtirishga rioya etish prinsipining mavjudligi (Tojikiston), majburlov vositalarini oqilona qo'llash prinsipining mazmunan kengligi hamda bunda resotsializatsiya qilish shakllariga alohida o'rin berilganligi (Belarus Respublikasi), mahkumlarning qonunga itoatkorligi hamda faol ijtimoiy foydali xulq-atvorini rag'batlantirish prinsipining kengroq yoritilganligi (Qozog'iston) keltirilgan.

